

VATANIMIZDA MUSTAQILLIK YILLARI YOPIQ SAVDO BOZORLARI VA ARXITEKTURASI

Seytekov B.E.

Qoraqalpoq Davlat Universiteti, katta o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

Maqolada Vatanimizda mustaqillik yillari yopiq savdo bozorlari va arxitekturasini o‘rganish, yopiq bozorlar strukturasi va arxitekturasini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlariga ilmiy asoslangan loyihaviy takliflar berish.

Kalit so‘zlar: bozor, struktura, me’morchilik, tarixiy, karvonsaroy.

АННОТАЦИЯ

В статье проведено исследование закрытых торговых рынков и архитектуры лет независимости нашей страны, даны научно обоснованные проектные предложения по дальнейшим направлениям развития структуры и архитектуры закрытых рынков.

Ключевые слова: рынка, структура, архитектура, история, караван сарай.

Vatanimizda mustaqillik yillarida qurilgan bozorlarni o‘z qamrovi, ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va shaharsozlik darajasiga qarab mahalliy, mintaqaviy, milliy va jahon bozorlariga ajratish mumkin.

Har bir mamlakatning bozorlari va savdo inshootlarining arxitekturaviy echimlari ular joylashgan shaharlarning tabiiy iqlim sharoitlari, shaharsozlik tizimi, jamiyatning rivoji va madaniyati savdo-sotiq, qurilish sohasidagi ananalari bilan bog‘liq holda shakllanadi. O‘zbeniston tarixidagi shaharsozlikka nazar tashlasak o‘sha davrlarda ko‘proq “tim”, “toq”, “chorsu” tipidagi o‘sti yopiq bozorlar rivojlangan. Bunday yopiq bozorlarning rivojlanishiga asosiy sabab, bu tabiiy iqlim sharoitlari bo‘lib hisoblanadi.

Toshkent shaxri qadimdan savdo-sotiq bilan shug‘ullanadigan markaz sifatida taniqli bulib kelgan. Hozirda Toshkent shahrida 10 dan bozorlar mavjud. Dehqon bozorlari va buyum bozorlari sifatida ish olib borishadi. Toshkent shahrida tarixiy bozorlar juda ham ko‘p hisoblanadi masalan Chorsu bozori, Eski-Juva bozori 4-5 asrlik tarixga ega.

Chorsu buyum bozori Toshkent shahrining Shayxontohur tumanani Chorsu daxasi, Zarqaynar ko‘chasida joylashgan. Bu bozorni atalishi Toshkent shahrining Beshyog‘och mavzesidagi eski mahallani nomi hisoblangan va u mahalla ko‘rinishini XI asrda qolgan qadimiy mahalla hisoblanadi. Bu mahalla joylashuvi jihatidan markazda yani to‘rt ko‘chaning kesishish nuqtasida joylashgani uchun ham bu erda bozor vujudga kelishi oson bo‘lgan. Dastlab kosiblar ustaxonalarini va kichik do‘kondorlarning rastalari paydo bo‘lgan keyinchalik esa bu bozor kengayib qadimiy Registon bozori bilan qo‘silib ketgan. Ma’lumotlarda keltirilishicha tort tomonli yani «Chor» so‘zidan bozorning nomi kelib chiqgan. Arab tilidan tarjima qilinishicha to‘rt tomonli bozor manosini beradi, yani «suk»ning tarjimasi bozor manosida keladi. Keyinchalik xalq tilida chorsu degan nom olgan.

Aviasozlar dehqon bozori uncha katta tarixga ega emas, lekin u Toshkent shahridagi eng qulay shart sharoitga ega bo‘lgan bozorlardan biri hisoblanadi. Uning rasmiy nomi Aviasozla dehqon bozori aj nomi bilan yuritiladi. Bozor Toshkent shahrining Yashnobod tumani Aviasozlar mavzesida joylashgan. Bozorning shu nom bilan atalishi shu tumanda joylashgan aviasozlik kompaniyasi bilan bog‘liqdir. Sobiq Toshkent aviasozlar zavodi yonida joylashgani sababli bu bozorni ham shu nom bilan atalgan. 2015-yilgi so‘rovnomaga ko‘ra Aviasozlar dehqon bozori Toshkent shahridagi eng namunali bozor sifatida topilgan, bozor huddidida joylashgan sobiq «Hamza» savdo majmuasi buzilib uning o‘rniga yangi zamonaviy savdo markazi qurilmoqda.

Oloy Bozori. Toshkent shahri Amir Temur ko‘chasida joylashgan Oloy bozori oldin kichik bir savdo shoxobchasi maqomida bo‘lgan, uncha katta bo‘lmagan bozor hisoblangan. 1928-yil uning nomi rasmiy ravishda «Oloy bozori» nomiga o‘zgartirilgan, manbalarga ko‘ra XIX asrning to‘rtinchi choragida bu bozorning nomi «Oloy malikasi» nomi bilan yuritilgan. Bozor hozirgi kunda aholi uchun kerakli hamma narsa bilan to‘ldirilgan, asosan kiyim kechak va har hil buyumlar bilan savdo qiladigan savdogarlar bu erda o‘z tadbirkorlik ishlarini amalga oshiradilar.

Samarqand siyob bozori. Siyob – Sharqning ko‘hna va ko‘rkam bozori-Bir tomonida Bibixonim, ikkinchi tomonida Hazrati Xizr masjidlari qad ko‘targan, Registon va Shohizinda majmualari oralig‘ida joylashgan bu bozor sayyoohlarning ham sevimli maskani. Bozorga kirish uch tavaqali arkli darvoza orqali bo‘lib, asrlar davomida saqlanib kelayotgan hunarmandchilik uslubida ko‘k koshinlar bilan bezatilgan. Salkam

2000 ga yaqin savdo rastalari yozning jaziramasi, qishning qahratonidan himoya qilish uchun shiypon bilan berkitilgan.

Bozor ma'muriyati har bir mahsulot turiga qarab alohida bo'lim tashkil qilinganligini haqida ma'lumot berib o'tgan. – Masalan, bu bozorga kelgan har bir mehmon Samarqand nonidan xarid qilishni istaydi. Marhamat – 17 xil turdag'i non mahsulotlari uchun alohida rastalar. Samarqand shirinliklari uchun ham alohida. Baliq, tovuq, go'sht mahsulotlari uchun esa yopiq, sovutish tizimi to'liq ishlaydigan alohida bo'lim. Hozirda non, quruq meva va shirinliklar rastalarini qaytadan ta'mirlagan bo'lsak, go'sht mahsulotlari uchun alohida pavilon qurilmoqda. Oyoq ostiga esa 700 metr kvadrat zamonaviy plita yotqizdir. Xaridorlar kayfiyatiga kayfiyat qo'shish uchun bozor atrofida gulzorlar tashkil etildi.

Nukus dehqon bozori: Nukus dehqon bozori tarixini 1932 yildan boshlab, shu nomdagi Nukus qishlog'idan boshlab o'rganish odat tusiga kiradi. Aynan u deyarli 90 yil oldin zamonaviy shaharni rivojlantirish uchun boshlang'ich nuqtaga aylangan. Qal'a atrofida turar joylar paydo bo'la boshladi va tez orada Nukus dehqon bozori paydo bo'ldi yangi eng gavjum joyiga aylandi.

Nukus dehqon bozori, bu Qoraqolpog'istonning Nukus shahridagi oziq-ovqat bozori hisoblanadi. Bu bozor Dostlik kanali va Ernazar Alakoz ko'chasi o'rtasida joylashgan bozor bo'lib, u Nukusdagi eng qadimiy savdo joylaridan biri hisoblanadi. Uning umumiy maydoni 3900 m² bo'lib shundan yopiq bozor hududi 840 m² ni tashkil qiladi u erga ko'plab Qoraqolpog'istonliklar xarid uchun kelishadi.

Hozirgi kunda Nukus dehon bozori aholiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari bilan xizmat ko'rsatib kelioqda. Bu dehqon bozorda oziq ovqat do'konlari 27 ta, 1 ma'muriy bino, umumiy ovqatlagish korxonasidan 5 ta, qishloq-xujalik maxsulotlari savdo rastalari, sut va sut maxsulotlari rastalari, non va non maxsulotlari rastalari va boshqalar xizmat ko'rsatb kelmoqda.

Shu bilan bir katorda achinarli holat, Nukus dehqon bozorining Respublikamiz iqlim sharoitlariga umuman mos kelmaydigan sariq ranglar bilan pardozlanganligi, arxitekturasi va dizayni milliy ananalarimizga ham to'g'ri kelmasligi, bu yopiq bozor hududida bebosita bozor qatnashuvchilari bolgan savdogorlar va xaridorlar uchun mashinalar qo'ysh joyining yo'qligi ham shahar aholisiga bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda.

Boshqa savdo binolari va supermarketlar shaharni bog'lab turuvchi shoh ko'chalar, turar joy massivlari va mikrayonlarga joylashtirilmoqda.

Yana shahar mahalliy bozorlaridan biri bu Nukus temir yo‘l yonidagi dehon bozor. Bu bozor ham 1932-yilgi Nukus qilog‘ini Qoraqolpog‘iston Respublikasi roytaqtı Nukus shahriga aylanirilgandan keyingi qurilgan bozor. Temir yo‘l yonidagi bu bozorning umumiy maydoni 343 m² bo‘lib, bu bozor aholiga asosan oziq-ovqat va dehqonchilik mahsulotlari bilan xizmat qiladi.

Nukusdagi baliq bozori- Hozirgi nukus shahri o‘rnida XIX-asrning 60-yillarida Nukus ovuli mavjud bo‘lgan. 1870-yillarda Nukusda savdo-sotiq, hunarmandchilik, baliq ovlash birmuncha rivojlandi, Amudaryoning suv rejimini nazorat qiluvchi gidrologik post qurildi. Nukusning gone qal’a shahridagi baliq bozori baliqchilar va dehqonlar uchun qurilgan. Bozorning o‘zi shisha devorlar bilan bir qavat qilib qurilgan. Bozor loyihasini ishlab chiqishda sotuvchilarning o‘zlari ham ishtirok etishdi. Natijada, kichik maydonda 360 m² bozor qurilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A.S.Uralov Grajdanskie zodchetvo srednevekovoy Sentralnoy Azii T-2021
2. A.S.Uralov., I.M. Saidov O‘rta Osiyo me’moriy yodgorliklari - vatanimiz tarixini o‘rganishning moddiy manbalari.
3. O. Jalilov XIX-XX asr boshlaridagi qoraqalpoq tarixidan. T-1986
4. Ayimbetov I. magistirlik dissertatsiyasi. Samarqand 2022.

Internet manbalari

1. <https://ru.wikipedia.org/Ashxabot bozori>
2. <https://shosh.uz/Toshkent> bozorlari
3. O‘zbekiston milliy insklopedioyasi.